



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil
1- may holatiga ko'ra, birlikda)

3

21 827




Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

1 235



Oilaviy korxonona

137



Unitar korxonona

6 239



Xususiy korxonona

21



Aksiyadorlik jamiyati

426



Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 1 295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 168 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 235 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 123 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga yoki 78,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 22 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 930 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 827 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 475 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 655 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160 taga yoki 91,2 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra 302 tani tashkil etib, ulardan 295 tasi yoki 96,7 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 31 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga yoki 1,7 martaga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga, birlikda)




Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	59	45	14
Qozog'iston Respublikasi	15	9	6
Xitoy Xalq Respublikasi	54	29	25
Qirg'iz Respublikasi	9	7	2
Tojikiston Respublikasi	11	8	3
Turkiya Respublikasi	43	16	27
Hindiston Respublikasi	13	5	8
Janubiy Koreya Respublikasi	31	23	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	295	181	114
Namangan shahri	98	57	41
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	30	21	9
Namangan	19	16	3
Norin	12	7	5
Pop	26	17	9
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	17	13	4
Uchqo'rg'on	11	6	5
Chortoq	26	15	11
Chust	22	12	10
Yangiqo'rg'on	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 98 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 33,2 %), Kosonsoy 30 ta (10,2 %), Pop va Chortoq 26 ta (8,8 %dan), Chust 22 ta (7,5 %), Namangan 19 ta (6,4 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri 33,0 %), Chust (8,0 %), Namangan, Uychi (6,8 % dan), Pop (6,3 %), To'raqo'rg'on, Kosonsoy (6,2 %dan), Uchqo'rg'on (6,1%), Chortoq (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,0 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (32,2 %), Chust (8,4 %), Chortoq va Uchqo'rg'on (7,0 % dan), Yangiqo'rg'on (6,9 %), Uychi (6,8 %), To'raqo'rg'on (6,5 %), Norin (6,3%), Namangan (6,2 %), Kosonsoy (5,8 %), Pop (4,2 %) hamda Mingbuloq (2,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,3 %), Uychi (7,1 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,6 %), Kosonsoy (6,5 %), Namangan (6,3 %), Chust (6,6 %), Uchqo'rg'on (5,5 %dan), Yangiqo'rg'on va Norin (5,3 %dan), To'raqo'rg'on (5,1 %), Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-may oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan shahri (38,2 %), Yangiqo'rg'on (17,1 %), To'raqo'rg'on (14,1 %), Namangan (6,5 %), Chust (4,1 %), Mingbuloq, Kosonsoy, Chortoq (3,3 %dan), Norin, Uychi, Pop, Uchqo'rg'on (2,4 %dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.